

Buxoro viloyatida Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari


2026-yil yanvar-mart oylari uchun

- I. Buxoro viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot
- II. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar
- III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari
- IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari
- V. Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari
- VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Buxoro viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot

2026- yilning 1-aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 25 803 tani tashkil etdi.

Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi¹




¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 20-apreldagi PF-113-son Farmoniga asosan, davlat organlarida mavjud ma'lumotlar bazalarining dolzarbligini va statistik axborotlarning bir xilligini ta'minlash

Hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

	2025- yil 1- aprel holatiga, birlik	2026-yil 1- aprel holatiga, birlik
Buxoro sh.	6311	6993
G'ijduvon tumani	2430	2584
Romitan tumani	2184	2463
Jondor tumani	1926	2161
Buxoro tumani	1765	2008
Shofirkon tumani	1343	1567
Vobkent tumani	1440	1557
Kogon tumani	1332	1433
Peshku tumani	1254	1389
Qorako'l tumani	1113	1130
Olot tumani	947	1073
Kogon sh	821	895
Qorovulbozor tumani	516	550

Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni](#)


II. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2026- yilning yanvar-martida 1 264 ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi.

2026- yilning yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida 393 ta, sanoatda 111 ta, boshqa xizmatlarda 118 ta hamda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 251 ta tashkil etilgan.

maqsadida Soliq qo'mitasi, Statistika agentligi va Adliya vazirligining davlat ro'yxatidan o'tgan yuridik shaxslar haqidagi ma'lumotlar bazalari to'liq xatlovdan o'tkazildi va aniqlangan farqlar bixillashtirildi

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni



2026- yilning yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida 393 ta, qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 251 ta, boshqa xizmatlarda 118 ta hamda sanoatda 111 tani tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

	2025- yil yanvar-mart oylarida, birlik	2026-yil yanvar-mart oylarida, birlik
Buxoro sh.	305	298
Romitan tumani	179	172
Buxoro tumani	75	120
G'ijduvon tumani	100	105
Jondor tumani	59	99
Qorako'l tumani	80	85
Shofirkon tumani	56	85
Kogon tumani	71	69
Vobkent tumani	54	67
Peshku tumani	57	61
Olot tumani	51	46
Kogon sh	35	36
Qorovulbozor tumani	50	21

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni \(oylik\)](#)


[Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni \(yillik\)](#)

III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIMdagi ulushi dinamikasi

2026- yilning yanvar-martida YAIM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 65,3 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIMdagi ulushi dinamikasi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIMdagi ulushi


2026- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIMdagi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng yuqori ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 97,3% xizmatlar sohasida – 72,5 %, qurilishda – 72,0 % va sanoatda – 36,0 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan sanoat ishlab chiqarishi faoliyati

2026-yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 4 560,2 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi yoki sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmining 36,0 % ini tashkil etdi.

Tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotlaridagi eng yuqori ulushi Shofirkon tumani (91,0 %), Jondor tumani (85,5 %), Vobkent tumani (71,6 %), Kogon tumani (70,6 %) va Kogon shahri (64,2 %) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi va jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari \(xizmatlari\) hajmi \(choraklik\)](#)


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari \(xizmatlari\)dagi ulushi \(choraklik\)](#)

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish faoliyati

2026- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 3 325,4 mlrd so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 72,0 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 100,6% ni tashkil qildi.

Tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Peshku tumani (98,3 %), Jondor tumani (97,6 %) va Kogon tumani (96,6 %) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi \(choraklik\)](#)

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami qurilish ishlaridagi ulushi \(choraklik\)](#)

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya faoliyati


2026- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 7 691,2 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 57,8 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 177,6% ni tashkil qildi.

Tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmidagi eng yuqori ulushi Jondot (95,8 %), Vobkent (93,9 %), Shofirkon (92,3 %) va Kogon (91,9 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi \(choraklik\)](#)
[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalardagi ulushi \(choraklik\)](#)




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyati

2026- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagi hajmi 5 665.5 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 97,3 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 104,4 % ni tashkil qildi.

Tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Peshku tumani (98,5 %), Olot tumani (98,4 %), Buxoro tumani (98,4 %) G'ijduvon tumini (98,4 %) va Romitan tumani (98,4 %) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yetishtirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsuloti hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlarini \(xizmatlarini\) ishlab chiqarish hajmi \(choraklik\)](#)


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami qishloq o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlarini \(xizmatlarini\) ishlab chiqarishdagi ulushi \(choraklik\)](#)

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan chakana savdo faoliyati

2026- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning chakana savdo aylanmasi hajmi 5 949,9 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 89,1 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 116,0 % ni tashkil qildi.

Tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi eng ko'p ulushi Qorovulbozor tumani (99,9%), Romitam tumani (99,7 %), Shofirkon tumani (99,5 %) va Qorako'l tumani (99,2 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari chakana savdo aylanmasining hajmi va jami savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo aylanmasi hajmi \(choraklik\)](#)


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami chakana savdo aylanmasidagi ulushi \(choraklik\)](#)

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan xizmatlar faoliyati

2026- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning xizmatlar sohasidagi hajmi 8 491.0 milliard so'mni yoki umumiy hajmining 72,5 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025-yil yanvar-mart oylariga nisbatan 119,4 % ni tashkil qildi.

Tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar hajmidagi eng ko'p ulushi Vobkent tumani (98,2 %), Kogon tumani (87,8 %), G'ijduvon tumani (84,4 %), Olot tumani (83,7 %) va Buxoro tumani (80,3 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



Название

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmi \(choraklik\)](#)


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami ko'rsatilgan xizmatlardagi ulushi \(choraklik\)](#)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2026-yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 50,5 million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 50,6 % ini tashkil etdi.

2026-yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Romitan tumanida – 100,0 %, Buxoro tumanida – 100,0 %, Kogon shahrida – 100,0 %, Buxoro shaxrida – 75,0 %, Jondor tumanida – 96,7 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) eksporti hajmi va jami eksport hajmidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot \(ishlar, xizmatlar\) eksporti hajmi \(choraklik\)](#)


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami mahsulot \(ishlar, xizmatlar\) eksportidagi ulushi \(choraklik\)](#)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2026- yilning yanvar- martida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 120,6 million AQSH dollarini yoki jami importning 42,9 % ini tashkil etdi.

2026-yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Kogon shahrida – 100,0 %, Vobkent tumanida – 100,0 %, Shofirkon tumanida – 99,3 %, G'ijduvon tumanida – 95,1 %, Buxoro shaxrida – 92,3 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) import hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot \(ishlar, xizmatlar\) importi hajmi \(choraklik\)](#)

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami mahsulot \(ishlar, xizmatlar\) importidagi ulushi \(choraklik\)](#)

IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish umumiy hajmidagi ulushi


2026-yilning yanvar-martida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 93,7 % ni tashkil etdi. 2025- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,8 % ni tashkil qildi.

2026-yilning yanvar-martida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 71,0 % ni tashkil etgan bo'lib, 2025-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,2 % ni tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-martida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 99,7 % ni tashkil etib, 2025- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 104,9% ni tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-martida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 98,9 % ni tashkil etib, 2025- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,4 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami transport faoliyatlaridagi ulushlari dinamikasi



V. Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari

Umumiy iqtisodiy holatining baholanishi (korxonaning joriy holati bo'yicha)

Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun A'lo deb baholagan korxonalar ulushi 2022- yilning yanvar-martida 42,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2026- yilning yanvar-martida esa 16,6 % ni tashkil etdi.


Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini Yaxshi deb baholagan korxonalar ulushi 2022- yilning yanvar-martida 64,7 % bo'lgan bo'lsa. Bu ko'rsatkich 2026- yilning yanvar-martida 54,2 % ni tashkil qildi. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini o'rtacha deb hisoblagan korxonalar 2026- yilning yanvar-martiga 24,8 % ni tashkil etgan, iqtisodiy vaziyatini yomon deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 2022- yilning yanvar-martida 2,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2026- yilning yanvar-martiga kelib, bu ko'rsatkich 4,4 % ga yetgan.

Umumiy iqtisodiy holatning baholanishi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)

Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari to'g'risida o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli yaxshilanadi deb baholagan korxonalar ulushi 2022- yilning yanvar-martida 51,6 % ni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2026- yilning yanvar-martida 53,4 % ni tashkil qildi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarmaydi deb baholagan korxonalar ulushi 2022- yilning yanvar-martida 44,1 % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2026- yilning yanvar-martida 45,4 % yoki 1,3 birlikka oshgan. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashadi deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 2022- yilning yanvar-martida 4,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2026- yilning yanvar-martiga kelib, bu ko'rsatkich 1,2 % ni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning yanvar-mart oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)




Kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatni baholash

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2026- yilning I choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatini a'lo deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida – 19,0 % ni, qurilish 17,9 % ni va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 15,8 % ni tashkil etdi.


Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini yaxshi deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi Sanoatda – 60,1 % ni, savdoda – 59,6 % ni va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 55,1 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatini o'rtacha deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi xizmatlarda – 29,4 % ni, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 26,9 % ni va qurilishda 23,4 % ni tashkil etdi.

Hamda iqtisodiy vaziyatini yomon deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qurilishda – 8,2 % ni, sanoatda – 6,5 % ni va xizmatlarda - 3,9 % ni tashkil etdi.



Biznesga ishonch muhitini baholash (o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar)



V. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.

Metama'lumot uchun havola:

<https://Buxstat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/2977/Korxonalar-va-tashkilotlar-soni.pdf>

<https://Buxstat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1918/Kichik-biznes-korsatkichlari.pdf>

<https://Buxstat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1917/Kichik-biznesning-tarmoqlar-bo-yicha-ulushi.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Tadbirkorlik subyektlarini
kuzatuv bo'limi

Ijrochi:
I.Shokirov
65-223-81-96 (8030)